

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida Xorazm viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 36 199,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 6,4 % ga o'sdi.



YAHM deflyator indeksi 2023- yilning yanvar-sentabr oylari narxlariga nisbatan 111,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Xorazm viloyatining qo'shgan hissasi 3,6 % ga yetdi.

## 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida Xorazm viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi





## 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2023- yil	2024- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	30 492,6	36 199,7	106,4
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	29 822,0	35 537,9	106,4
mahsulotlarga sof soliqlar	670,6	661,8	106,9
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>29 822,0</b>	<b>35 537,9</b>	<b>106,4</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>11 381,3</b>	<b>12 750,7</b>	<b>104,1</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>7 203,4</b>	<b>8 936,5</b>	<b>108,1</b>
sanoat	4 607,5	5 922,3	108,1
qurilish	2 595,9	3 014,2	108,1
<b>xizmatlar</b>	<b>11 237,3</b>	<b>13 850,7</b>	<b>107,7</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3 893,4	4 891,1	112,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 465,5	1 939,5	112,5
boshqa xizmat tarmoqlari	5 878,4	7 020,1	103,5



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 18 025,0 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 4,4 % ga yuqoridir.

## 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



## 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)





## Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2023- yil	2024- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,8	98,2
mahsulotlarga sof soliqlar	2,2	1,8
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>38,2</b>	<b>35,9</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>24,2</b>	<b>25,2</b>
sanoat	15,5	16,7
qurilish	8,7	8,5
<b>xizmatlar</b>	<b>37,6</b>	<b>38,9</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	13,1	13,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,9	5,5
boshqa xizmat tarmoqlari	19,6	19,6




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 35,9 % ni, sanoat tarmog‘i 16,7 % ni, qurilish 8,5 % ni va xizmatlar sohasi 38,9 % ni tashkil aildi.

## Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2023- yil



2024- yil



● Yalpi qo‘shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar






YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,5 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrda – 2,2 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,2 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrda – 1,0 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,7 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrda – 0,2 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,9 f.p. (2023-yilning yanvar-sentabrda – 1,6 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,1 f.p. (2023- yilning yanvar-sentabrda – 0,3 f.p.)ga ko'paydi

## 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,1 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 35,9 %), sanoatda – 108,1 % (16,7 %), qurilishda – 108,1 % (8,5 %), xizmatlar sohasida – 107,7 % ni (38,9 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 112,2 % (13,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,5 % (5,5 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,5 % dan (19,6 %) iborat bo'ldi.

## Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 111,6 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 118,9 % va xizmatlarda – 114,5 % qayd etildi.

## Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)





2024- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 25 593,6 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida – 21 532,5 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 72,0 % ni (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida – 72,2 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bogʻliq.

## Yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

